Real vaqt monitori bir vaqtning o'zida 32 tagacha bo'lgan portlardan ma'lumot olish xususiyatiga ega. Real vaqt monitori uchun 300 dan ortiq kontrollerlar drayverga ega bo'lib hisoblanadi.

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

### 3.4. OPERATORNING ISH MUHITI INTERFEYSINI ANALIZ QILISH VA TANLASH.

Yuqoridagi bo'limda operator uchun grafik interfeyslar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan dasturiy muhitlar bilan tanishib o'tdik. Ularning barchasi o'xshash xarakteristika va funksiyalarga ega. Ular asosan narxi va qo'llab quvvatlaydigan qurilmalari bilan bir-biridan farqlanadi. Shularni inobatga olib HMIWeb display builder sistemasini tanlab oldik. Bunga uning ishlab chiqarish sanoatida yetakchi o'ringa egaligi, narxi pastligi va berilgan buyruqlarni bajarish sifatining yuqoriligi sabab bo'ldi.

HMIWeb display builder paketining boshqa dasturiy paketlardan farq qiluvchi asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- Ishlash davomida ishonchliligi – oxirgi 9 yil davomida 150 000 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalarida o'rnatilganligi va hech qanday to'xtalishlarsiz ishlab kelayotganligi;
- Ishlatishning osonligi vaoperator uchun cheksiz imkoniyatlar (cheklanmagan miqdorda mnemosxemalar bilan ishlash, xoxlagan qiyinlikdagi algoritmlardan foydalanish va boshq.)ga ega ekanligi;
- Ma'lumot almashinish uchun standart protokollardan foydalanishi (DDE, OPC, TCP/IP va boshq.);
- Kiruvchi signallarni dinamik tarzda boshqarish hisobiga yuqori tezlikda ishlash mexanizmiga ega ekanligi (boshqarilayotgan parametrga o'zgartirish kiritish kerak bo'lgandagina unga murojaat etiladi);
- Tarmoqda yuqori samaradorlikka ega bo'lib ishlashi uchun foydalanuvchi – server arxitekturasining ishlatilishi. Ma'lumotlar bazasini faqat server tomonidan olib boriladi, ularni foydalanuvchi stansiyalariga nusxa olib o'tkazishga hojat yo'q.
- Ochiqlilik – ActiveX va OPC texnologiyalarini qo'llaganligi uchun boshqa firmalarning tayyor komponentlarini qo'shish va ishlatish imkoniyatiga ega;

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekuperasion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

- Honeywell firmasining boshqa dasturiy paketlari va Windows sistemasi uchun eng ko'p tarqalgan dasturiy paketlar Microsoft Excel, Microsoft Access, Microsoft Visual Basic kabilar bilan oddiy ma'lumot almashinish imkoniyatiga ega ekanligi;
- 600 dan ortiq tayyor kirish chiqish modullariga ega ekanligi;
- Algoritm kutubxonasini yaratish imkoniyatining mavjudligi;
- Ko'p topshiriqli funkcionallash rejimiga ega ekanligi;
- 120 000 dan ortiq signallar va parametrlar bilan ishlash imkoniyatining mavjudligi;
- Kontrollerlar va datchiklardan keluvchi signallar sifatini avtomatik boshqaruv imkoniyatining mavjudligi;
- Windows NT xizmati sifatida ishlash imkoniyati – yangi foydalanuvchi qo'shilishining dastur funkcionalligiga ta'sir etmasligi;
- Bir vaqtning o'zida bir necha joyda sodir bo'lgan favqulotda vaziyatlar haqida alohida alohida ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati.

**Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish texnologik tizimi operator grafik interfeysi tahlili**

Grafik interfeysning bosh ekrani operatorga kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarish jarayonining holati haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Asosiy ekranda quyidagilar namoyish etilgan:

- Bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi, unga ulangan bug' generatori, mahsulotlari isitish uchun ishlatiladigan suv isitgichi;
- Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda ishlatiladigan ijrochi mexanizmlar, mahsulotlarni qurilmalarga haydash nasoslari, boshqaruv klapanlari va avtomatik surgichlar;
- Texnologik jihozlar va ijrochi mexanizmlarni bog'lovchi quvuryo'llar;


O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z.				

- Texnologik jarayonda nazorat qilinadigan va boshqariladigan asosiy texnologik parametrlar va boshqalar.
- Klapanlar uchun klapaning ochiqlik darajasining foizlarda ifodalanishi ko'rsatilgan.

Shu narsani alohida ta'kidlash zarurki, ekranda ko'rsatilgan har bir ob'yekt haqidagi to'liqroq ma'lumotni ko'rish imkoniyati mavjud. Masalan, texnologik parametrlarnig chegarasi, ularning reglamentdagi qiymati, blakirovkalash qiymati, o'rnatilgan qiymatlar va hokazolar. Buning uchun operatoridan uni qiziqtiruvchi ob'yekt yonida joylashgan tugmaga bosish, yoki bevosita ob'yektning o'ziga bosish talab qilinadi.

Ekran va operator orasidagi aloqa sichqoncha va funksional klaviatura orqali amalga oshiriladi. Bu narsa operatorlar uchun juda ham qulay bo'lib hisoblanadi.

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet	
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.					
Rahbar:		Abidov K.Z					



Operator grafik interfeysi

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekuperasion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				



Birta ekranda texnologik jarayonni, undagi ob'yektlarni ifodalaydigan barcha parametrlarni ko'rsatishning imkoni bo'lmaganligi sababli – asosiy ekranga qo'shimcha ravishda boshqa jarayonlarga o'tish uchun ham ekranlar mavjud. Ular ish stolining o'ng tomonida joylashgan. Ular quyidagilar:

- 1- Bo'laklash;
- 2- Yuvish;
- 3- Bug'latish;
- 4- Silliqlash;
- 5- Quritish;
- 6- Qadoqlash;
- 7- Issiqlikni rekuperatsiyalash.


“Trendlar” paneli orqali texnologik parametrlarning ma'lum bir vaqt birligi orasidagi o'zgarishi haqida ma'lumot berilgan. Sistemada ma'lumotlar arxivi borligi tufayli trendlar ham analogli ham diskretli signallar uchun, istalgan vaqt oralig'i uchun qurilishi mumkin. Grafiklarni qurish davomida operator ularning tashqi ko'rinishini ham o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lib hisoblanadi (vaqt oralig'ini tanlashi, egri chiziqlar sonini o'zgartirishi, grafikni bosib chiqarish).

Ma'lumotlarni namoyish etish sistemasi quyidagi funksiyalarni bajarish qobiliyatiga ega deb xulosa qilishimiz mumkin:

- Texnologik jarayondagi parametrlar haqida ma'lumotlarni monitor ekraniga mnemosxemalar ko'rinishida chiqarish;
- Texnologik jarayon parametrlari qiymatlarini maxsus boshqaruvchi kadrlar yordamida namoyish etish;
- Parametrlarning avariya yoki chegaraviy qiymatlarga erishganligi haqida avtomatik tarzda signalizatsiya berish va qayd etish.
- Operator tomonidan ijrochi mexanizmlarning berilgan reglament asosida ishlashini ta'minlashiga ko'maklashish;

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekuperatsion uskunasini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z.				

- Boshqaruv sistemasining operatorning noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga yo'l qo'ymasligi;
- Monitor ekranida ma'lum bir grafiklar guruhini yasash va ularga o'zgartirish kiritish imkoniyatlariga ega.



Real vaqt davomida parametrlarning o'zgarish grafigi

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekuperasion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z.				

**3.4. KIMYOVIY TERMOMEXANIK MASSANI ISHLAB  
CHIQRISHDA BUG' GENERATORINING ISSIQLIK REKUPERSION  
USKUNASI ISHINI AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHSQARISH  
TIZIMINI JORIY ETISH BO'YICHA IQTISODIY SAMARADORLIK  
TAHLILI.**

Iqtisodiy tejamkorlik tekshiraloyatgan vaqt davomida ishlatilgan mahsulot miqdori bilan baholanadi. Yil davomidagi umumiy samaradorlik quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Is = Fmah.miqd.oshi - X \quad (4.1)$$

Bu yerda: F – AKT qo'llaniligidan keying qilingan foyda;

X – AKT ni joriy qilish uchun qilingan xarajatlar miqdori.

5.1 formulani aniqlashtirib olamiz:

$$Is = Fmah.miqd.oshi - (Xloy + Xasb + Xo'rn + Xdast + Xo'qit + Xxizm.ko'rs) \quad (4.2)$$

Bu yerda:

Fmah.miqd.oshi – AKT qo'llanilganidan keyin ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori oshishi natijasida qilingan foyda;

Xloy – loyihalash ishlari uchun sarflangan xarajatlar;

Xasb – asbob uskunalari va qurilmalarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar;

Xo'rn – o'rnatish uchun sarflangan xarajatlar;

Xdast – dasturiy vositani ishlab chiqish uchun sarflangan xarajatlar;

Xo'qit – xodimlarni o'qitish uchun sarflangan xarajatlar;

Xxizm.ko'rs – asbob uskunalarga xizmat ko'rsatish uchun sarflangan xarajatlar.

Bitiruv malakaviy ishida ko'rsatib o'tilgan AKT tizimlarini qo'llashda ishlatiladigan ko'pchilik qurilmalarni Rossiya davlatidan sotib olish mumkinligi uchun, aynan pul birligi sifatida rublni tanlab oldik. Bunda rubl va so'm kursi 1 rubl=140 so'm deb qabul qilamiz.

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekuperasion uskunasini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

1. Xloy – loyihalash hujjatlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun ketadigan xarajatlarni hisoblash uchun asosiy bizga kerak bo'ladigan ko'rsatkichlar bu – loyihalash ishi bilan shug'ullanadigan ishchi xodimlar soni va ularning maoshi, hamda ishchilardan saqlanadigan daromad solig'i ko'rsatkichlaridir.

Hisob kitoblar natijasida butun loyihalash va hujjatlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun 2.69 kishi kerak bo'lar ekan. Buni umumiy qilib 3 kishi deb qabul qilamiz. Ishlarni bajarish uchun ketadigan vaqt esa bir oy.

Birta ikkinchi razryadli muhandisning oyligi rublda taxminan 30740 rubl bo'ladi.

Uch kishining shu tekshirilayotgan bir oydagi ish haqqisi:

$$\text{Ish.haq} = 30740 * 3 = 92220 \text{ rubl.}$$

Daromad solig'i qonunchiligimiz normalaridan kelib chiqib hisoblasak,

$$\text{Dar.sol} = 92220 * 0.263 = 24254 \text{ rubl.}$$

Endi umumiy loyihalash ishlariga ketgan sarf xarajarni hisoblaymiz:

$$\text{Xloy} = 92220 + 24254 = 116475 \text{ rubl.}$$

2. Xasb –jarayonni avtomatlashtirish uchun ishlatiladigan asboblarning quyidagi narxlarda sotib olinadi. Narxlari yetkazilish bilan birga ko'rsatilgan.

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

Nomlanishi	Narxi, rub.	Soni	Umumiy narxi, rub
Vibratsion sath o'lchagich Sitrans LVL 200	87000	2	174000
Ortiqcha bosim o'zgartgichi Sitrans DS III	20000	3	60000
Konsentratomer Siwarex WP 31	67000	1	67000
Sitrans F Us clamp-on Ultratovushli sarf o'lchagich	50600	1	50600
Sitrans TS 500 Termojuftlik	25000	1	25000
PAS-01-RS O'zgartgich	33000	8	264000
Simatic S7-300 kontrolleri	220 000	1	220 000
Elektrik ijrochi mexanizm	36000	4	144000
JAMI	Xasb = 1 460 000 rub		

3. Xo'mn – o'rnatish uchun sarflangan xarajatlar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Nomlanishi	Umumiy qiymati, rub
<b>MATERIALLAR:</b>	
O'tkazgichlar	756000
Quvur o'tkazgichlar	842000
O'rnatish konstruksiyalari	323000
Boshqalar	184400
<b>O'RNATISH:</b>	
Datchiklarni	183900
Ijrochi mexanizmlarni	122000
Boshqaruchi klapanlarni	160800
O'tkazgichli trassalarni	165400
Kontrollerni	35100

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z.				

LVS	19200
Avtomatik ishchi o'rnini	10500
Ulanish:	
Maydon	12600
Qurilmalarni	55800
Operatorlik ishchi o'rnini	5900
Joriy ishga tushirish ishlari	120000
JAMI:	Xo'rn = 2996600 rub.

4. Xdast – dasturiy vositani ishlab chiqish uchun sarflangan xarajatlar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

Nomlanishi	Narxi, rub.
«STEP7Lite» dasturiy ta'minoti	11690
50 ta analog kirishlar uchun litsenziya	53200
25 ta analog chiqishlar uchun kitsenziya	34900
50 ta diskret kirishlar uchun litsenziya	62800
25 ta diskret chiqshlar uchun litsenziya	44300
SyTech hisobotlar generatori	33600
JAMI:	Xdast.ta'min= 240490 rub.

$X_{dast.tuz} = 100000$  rub.

Dasturiy ta'minot bo'yicha umumiy xarajatlar:

$X_{dast} = X_{dast.ta'min} + X_{dast.tuz} = 240490 + 100000 = 340490$  rub.

5. Xo'qit – xodimlarni o'qitish uchun sarflangan xarajatlar ularni o'qitish, ishchi xodimlarni yuborishlarni hisobga olgam holda:

$X_{o'qit.} = 150000$  rub.

6. Xxizm.ko'rs – asbob uskunalarga xizmat ko'rsatish uchun sarflangan xarajatlar:

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	Kimyoviy termomekanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

Xxizm.ko'rs. = 166100 rub./yil.

Fmah.miqd.oshi – bir yil davomida zavodning qilgan foydasi 16252600 rublni tashkil etdi.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun bir yil davomida zavodning qilgan foydasidan qilingan xarajatlarni ayirib tashlaymiz:

$$Is = 16252600 - 11483905,02 = 4768694,98 \text{ rub.}$$

Glikol aralashmasi yordamida gazlarni tozalash va quritish jarayonini amalga oshirishda AKT ni qo'llash orqali zavodning bir yilda qilgan foydasi 4768694,98 rub ni tashkil qiladi. Bu so'mda:

$$4768694,98 * 140 = 667\ 617\ 297.2 \text{ so'm.}$$

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

## **5. KIMYOVIY TERMOMEXANIK MASSANI ISHLAB CHIQRISHDA BUG' GENERATORINING ISSIQLIK REKUPERSION USKUNASI ISHINI AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHSQARISH JARAYONI OB'YEKTLARI BILAN ISHLASHDA XAVFSIZLIK TALABLARI**

1. Jarayonning yuqori harorat va bosimda olib borilishi sabab, A kategoriyali yong'inga-portlashga xavfli ishlab chiqarishga kiradi. Yong'inlarning yuzaga kelishi texnologik va yong'inga qarshi rejimning buzilishi va ta'mir ishlarining sifatsiz bajarilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2. Ma'lum bir tadbirlar, ishlab chiqarish va mehnat intizomiga rioya qilmaslik, xom ashyo va undan olinadigan mahsulotning ishchilar salomatligiga zararli ta'sir o'tkazishiga olib kelishi mumkin. Havo tarkibida neft mahsulotlari bug'larining miqdori chegaralangan ijozat etilgan kontsentratsiyasidan (CHIEK) oshganida, ular bilan zaharlanish mumkin.

3. Qurilmaning xavflilik darajasi oetib ketadigan vaqtlar:

- a) markazdan qochma nasoslarni ishga solmoq va to'xtatmoq, ularga xizmat ko'rsatmoq, nasoslarning sal'nikli zichlagichlarini kokmoq;
- b) isitadigan pechlarni tayyorlash, qizitish va kovlash;
- v) qurilmani nosoz nazorat va avtomatika asboblari, o'chirilgan blokirovka va signalizatsiya vositalari bilan ishlashi;
- g) texnologik rejim me'yorlari chegaralarini oshirib yubormoq;
- d) xom ashyoning gaz yoqilg'isi bilan birga pech forsunkalariga tushishi;
- e) suvning xom ashyo bilan birga ustunga tushishi;
- j) tiqinlarni o'rnatmoq va yechmoq.

**Texnologik jarayonni loyihalash, tashkil etish va amalga oshirishda ko'zda tutiladigan xavfsizlik choralari.**

Quyidagilar ko'zda tutilishi lozim:

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<i>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekuperasion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</i>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z.				



- xavfli va zararli ta'sir ko'rsatadigan boshlang'ich materiallar, tayyor mahsulot va ishlab chiqarish chiqindilari bilan ishchilarning bevosita aloqasini bartaraf etish;

- xavfli va zararli ishlab chiqarish faktorlarining kelib chiqishi bilan bog'liq jarayon va operatsiyalarni ko'rsatilgan faktorlar bo'lmagan yoki cheklangan yo'l qo'yilgan kontsentratsiyalar va sathlardan oshmagan jarayon va operatsiyalarga almashtirish;

- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari mavjud bo'lganida, kompleks mexanizatsiya, avtomatlashtirish, texnologik jarayonlar va operatsiyalarni masofadan boshqarishni qo'llash;

- jihozlarni zich yopish;

- ishchilarni himoyalash vositalarini qo'llashi;

- texnologik jarayonni nazorat qilish va boshqarish tizimi;

- zararli ishlab chiqarish omillarining manbasi bo'lmish chiqindilarni o'z vaqtida yo'qotish, zararsizlantirish va ko'mib qo'yish; aylanma suv ta'minoti tizimidan foydalanish;

- xavfsizlik uchun rangli signal va belgilarni ishlatish;

- hamisha bir xil, gipodinamika, haddan tashqari jismoniy va asab-jismoniy zo'riqlashlarning oldini olish maqsadida oqilona mehnat va dam olish rejimlarini qo'llash;

- tabiiy ko'rinishdagi va ob-havo sharoitlaridan kutilishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlardan himoya qilish.

-

### **Texnologik jarayonni olib borishda xavfsizlikning umumiy talablari.**

1) Qurilmani ishga tushirishdan oldin jihozlar montajining to'g'riligi va shuningdek truboprovodlar, armatura, erlantiruvchi moslamalar, NO'V, kanalizatsiya, yakka tartibdagi himoya va yong'inni o'chirish vositalarining ishga yaroqliligini tekshirish lozim.

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z.				

2) Qurilmaning ishlash vaqtida NO'V ko'rsatuvlari orqasidan qattiq kuzatish, apparatlarning o'zida o'rnatilgan mahalliy asboblar bilan taqqoslash lozim.

3) Apparatlardagi harorat va bosimning o'zgarishi, bo'lishi mumkin bo'lgan deformatsiyalarni ogohlantirish uchun, sekinlik bilan va ravon amalga oshirilishi kerak.

4) Qurilmadagi texnologik rejim ustidan qattiq kuzatmoq, parametrlar (bosim, harorat, sarf, sath va boshqalar) o'zgarishining o'rnatilgan me'yorlardan oshishi yoki pasayishiga yo'l qo'ymaslik.

5) Ishlamaydigan apaparatlar, jihozlar yoki truboprovodlarda surma klapanlarni ochiq qoldirish man etiladi.

6) Sxemadan o'chirilgan apparatlar, jihozlar va truboprovodlar ta'mirdan oldin tozalangan bo'lishi kerak.

7) Truboprovodlardagi surma klapanlar va jo'mraklar tizimli tarzda ta'mirlanishi lozim.

8) Barcha ta'mirlangan apparatlar va qurilmaning alohida tugunlari ishga tushirishdan oldin bosim orkali zich yopilganiga tekshiriladi.

9) Faqat ishga yaroqli jihozda ishlash lozim. Jihoz, kommunikatsiya yoki o'lchov va rostlovchi asboblarning har qanday buzuqliklarida yoki normal ishlashining buzilishida darhol bu buzuqliklarni bartaraf etish choralari ko'rilsin.

10) Truboprovodlar va jihozlar izolyatsiyasining neft mahsulotlariga to'yinishiga yo'l qo'ymaslik. Tuyingan izolyatsiyani almashtirish lozim.

11) Amaldagi jihozlarda sal'niklar, flanetsli birikmalarni bosimni atmosfera bosimigacha tushirmasdan turib zichlashtirish man etiladi.

12) Kanalizatsiyaga to'kiladigan bo'shatish suvlarida neft mahsulotlarining miqdori o'rnatilgan me'yoridan yuqori bo'lmasligi kerak.

13) Nasosli stantsiyalardan foydalanilganda nasoslar va truboprovodlarning zich yopilganligi ustidan tizimli ravishda nazorat bo'lishi lozim. Neft mahsulotining sirqib to'kilishini payqaganda nasos to'xtatilishi, amaldagi

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

kommunikatsiyalardan o'chirilishi, ta'mirga tayyorlanishi lozim. Nasoslarni ular ishlaganda ta'mirlash man etiladi.

14) Ta'mirdan yoki montajdan qabul qilingan jihozlar qurilma boshlig'i yoki mexanikning ruxsatisiz ishga tushirilmasin.

15) Harakatlanayotgan qisimli mexanizmlarga xizmat ko'rsatganda quyidagilar man etiladi:

a) ish vaqtida to'siq orqasiga kirmoq;

b) himoyalovchi to'siqlar bo'lmaganida yoki ularning buzuqligida ishlamoq;

v) harakatlanayotgan qismlarni yo'lda har qanday tuzatmoq yoki ta'mirlamoq;

g) o'rnatilgan maxsus kiyimsiz ishlamoq.

16) YUqori xavfli ishlarni faqat o'rnatilgan shaklda yozma holdagi naryad-ijozatga (ruxsat) muvofiq bajarmoq.

17) O'chirilmagan va tayyorlanmagan jihozlarda ta'mirlash ishlari olib borilmasin.

18) Begona shaxslarni ish joyiga va korxonaning amaldagi ob'ektlariga qo'ymaslik.

19) Lavozim yo'riqnomasida ko'rsatilgan barcha ishlarni, xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalariga rioya qilgan holda o'z vaqtida va puxta bajarmoq.

20) Qurilma, bino va inshootlar maydoni toza holda saqlanishi kerak. Axlat, ishlab chiqarish chiqindilari, barglar va shu kabilar, tizimli ravishda territoriyadan maxsus ajratilgan joylarga chiqarilishi, neft mahsulotlarining to'kilishiga yo'l qo'ymaslik, to'kilganida esa bu joy tozalangan va qum bilan sepilgan bo'lishi lozim.

21) Bino va inshootlarga kirish yo'llarda , ostonalarda , zinapoya qafaslari, o'tish joylari, binodan chiqish joylarida yong'in jihozlari, yong'in gidrantlari, yong'in aloqasi va signalizatsiyasi vositalariga kirish yo'llari va ostonalarini tiqilinch qilishga yo'l qo'yilmasin.

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

22) Ishlab chiqarish binolaridagi pollarni tozalikda saqlamoq. Ishlatilgan artish uchun ishlatiladigan materialni qopqoqli maxsus yashikka yig'moq.

23) Qurilmalar maydonidagi ishlab chiqarish kanalizatsiyasi kuzatish quduqlari qopqoqlarini doimo yopiq holda va 10 cm dan kam bo'lmagan qum qatlami bilan qoplangan va halqalangan holda saqlamoq.

24) Pol, devor, mashinalar va jihozlar detallarini engil alanga oluvchi va yonuvchan suyuqliklar bilan yuvish ta'qiqlanadi. Bu maqsadlarda yong'inga xavfsiz yuvish vositalari qo'llanilishi kerak.

### **Qurilmaga xizmat ko'rsatuvchi personalga asosiy talablar**

Qurilmada 18 yoshga kirgan, xavfsizlik texnikasi bo'yicha instruktajni o'tgan, aynan ish joyida ishlashning xavfsiz usul va uslublariga o'qitilgan va mustaqil ishlashga ruxsati bor shaxslarning ishlashiga ruxsat beriladi.

*Xizmat ko'rsatuvchi personalning vazifalari:*

- qurilmaning texnologik chizmasini, yordamchi tarmoqlar, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatizatsiya vositalari chizmalarini mukammal bilmoq;

- tizimli ravishda jarayon parametrlarini nazorat qilmoq va o'z vaqtida operatorlar xonasidagi qalqonda va o'rnatilgan joyidagi asboblarning ko'rsatuvlarini taqqoslash;

- ishlab chiqarish texnologik xaritasida ko'rsatilgan texnologik rejim me'yorlariga qattiq rioya qilish va o'z vaqtida parametrlarning chetga chiqishini bartaraf etish choralari ko'rishi lozim;

- tizimli ravishda ishlab chiqariladigan mahsulot sifati nazoratini namuna tanlash yo'li bilan amalga oshirmoq va tahlillar natijasiga ko'ra, brakni ishlab chiqarishga yo'l qo'ymasdan, texnologik rejimni to'g'rilamoq;

- o'z vaqtida flanetsli birikmalar va sal'nikli zichlagichlarning tirqishlari orqali oqib chiqishlarni topmoq va bartaraf etmoq;

- yong'inni o'chirish, mustaqil himoya vositalari va maxsus kiyimlarni ishga yaroqli holda saqlamoq;

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

- propanning zaharlovchi va zararli xususiyatlarini, uning portlash chegarasini, shuningdek ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan gudron, deasfal'tizat, asfal'tlarning xususiyatlarini bilmoq;

- ish joyida tozalik va tartibni tutib turmoq;

- lavozim va xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalarining talablarini bajarmoq.

### **XODIMLARNING INDIVIDUAL HIMOYA VOSITALARI**

a) nafas olish a`zolari himoyasi vositalari uglevodorodlardan filtrlovchi A» va «BKF» rusumli protivogazlar, «PSH-1» va «PSH-2» rusumli shlangli protivogazlar, changdan saqllovchi respiratorlar.

b) maxsus kiyim: paxtaqog'ozli bir yoqlama tugmali kostyum;

v) maxsus oyoq kiyimi: rezina poshnali charm botinkalar;

g) qo'lni himoyalovchi vositalar: paxtaqog'ozli qo'lqoplar, kislota va ishqorlardan rezinali qo'lqoplar;

d) boshni himoyalovchi vositalar: himoyalovchi kaskalar podshlemniki bilan;

e) ko'zni himoyalovchi vositalar: himoyalovchi ko'zoynaklar

j) saqllovchi moslamalar: saqllovchi belbog'lar;

z) eshitish a`zolarini himoyalovchi vositalar: shovqinga qarshi quloqchinlar (kompressorlar mashinistlari uchun).

### **Bino va tashqi qurilmalarning portlovchi-yong'inli va yong'inli xavfi**

Ishlab chiqarish binolari va tashqi qurilmalarning portlovchi, portlovchi-yong'inli va yong'inli xavflari

Ishlab chiqarish binolarining	portlovchi, portlovchi-yong'inli va	Ishlab chiqarish binolari va tashqi qurilmalarning portlashga xavfi bo'yicha sinflanishi	YOn g'inga xavfliligi
-------------------------------	-------------------------------------	--	-----------------------

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekuperasion uskunasini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z.				

(tashqi qurilmalarning) nomlanishi	yong'inli xavflari bo'yicha kategoriyasi	Portlas hga xavfliligi sinfi	Portlashga xavfli aralashmaning kategoriyasi va guruhi	sinfi
Nasoslar turar joyi	A	V-1G	PA-T3	II-E
Apparatli hovli	A	V-1G	PA-T3	II-E

**Atrof muhitga ishlab chiqarish jarayoni va ishlab chiqariladigan mahsulotning zararli ta`sirini cheklovchi me`yorlar va talablar**

1) Ishchi zona va atmosferaga portlashga xavfli va zararli gazlar chiqishining oldini olish uchun, qurilmaning texnologik apparatura va kommunikatsiyalari zich yopilgan bo'lishi lozim.

2) Suyultirilgan gazlar va engil alanganadigan suyuqliklarni bir joydan boshqa joyga quyish uchun yuqori ishonchli yon tomonli zichlagichli yoki sal'nikli zichlagichli nasoslarni qo'llash kerak.

3) Kanalizatsiya tizimiga texnologik apparatlarning zaharli, yong'inga va portlashga xavfli moddalarini tashlash, hattoki avariya holatlarda, ta`qiqlanadi. Apparatlarni bo'shatishda neft mahsuloti emas, faqatgina suv chiqarilsin.

4) Xavo ifloslanishining oldini olish uchun ta`mirdan oldingi apparatlar va kommunikatsiyalarni bug' bilan tozalash ishlari ularni to'liq bo'shatilgandan so'ng boshlansin.

5) Kondensatorlar va sovitgichlardan chiqariladigan aylanma suv tarkibida neft mahsuloti bo'lmasligi va ph neytral bo'lishi lozim.

6) Gazli kompressorlar va yopiq nasoslar binolarida havo muhiti avtomatik ravishda signali avariya ventilyatsiya bilan blokirovkalanagan, portlashga xavfli konsentratsiyalar signalizatori (PKS) orqali nazorat qilinishi lozim.

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<b>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekuperasion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</b>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z.				

## XULOSA

“Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug’ generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish” mavzusida bitiruv malakaviy ishi bajarildi. Bu bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida jarayonni avtomatlashtirishning maqsadi, mohiyati va dolzarbligi belgilab olindi. Texnologik jarayon boshqarish ob’yekti sifatida to’liq tahlil qilindi va ushbu jarayonni avtomatlashtirishning hozirgi holati, avtomatlashtirish darajasi aniqlandi. Texnologik tizimning sxemasi o’rganildi. Parametrlarni o’lchash uchun datchiklar va avtomatlashtirish vositalari tanlandi. Mavjud avtomatlashtirish sxemasida ikkilamchi asboblardan va rostlagichlardan o’rniga mikroprotessorli mikrokontrollerlar tanlandi. Tanlangan mikrokontrollarning to’liq texnik xarakteristikalarini keltirildi.

Avtomatlashtirish vositalarining dinamik xarakteristikalarini tuzishda rostlash ob’yekti parametrik sxemasi va o’tish xarakteristikalarini keltirilgan, rostlash qonuni va rostlagich tanlandi. Rostlagichni sozlash parametrlari hisoblandi va uzatish funksiyasi tuzildi. “Matlab” amaliy dasturida ARS ning struktura sxemasi, chastota xarakteristikasi aniqlandi.

Prinsipial elektr ta’minot sxemasining tavsifida ta’minlovchi va taqsimlovchi tarmoqlarda elektr elementlarining vazifasi keltirildi.

SCADA sistemasining HMIWeb builder dasturi orqali operatorning grafik interfeysi yaratildi va unga tegishli bo’lgan dastur yozildi.

Jarayon avtomatlashtirilganidan keying iqtisodiy samaradorlik aniqlandi. Jarayon avtomatlashtirish amalga oshiriladigan sexda hayot faoliyati xavfsizligi masalalari yoritildi.

O’zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	<i>Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug’ generatorining issiqlik rekupersion uskunasi ishini avtomatlashtirish va boshqarish</i>	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Юсуфбеков Н.Р., Мухаммедов Б.Э., Гуломов Ш.М. Технологик жараёнларни бошқариш системалари. Тошкент. “Ўқитувчи”, 1997.-704 б.
2. Датчики давления и расхода. «Siemens». Каталог 2014.
3. Датчики температуры«Siemens». Каталог 2014.
4. Журнал «СТА», №3, 2012 г.
5. Юсуфбеков Н.Р. ва бошқалар. Автоматика ва ишлаб чиқариш процессларининг автоматлаштирилиши. Тошкент. “Ўқитувчи”, 1982. – 351
6. Проектирование систем автоматизации технологических процессов: Справочное пособие / А.С. Клюев, Б.В. Глазов, А.Х. Дубровский, А.А. Клюев; Под ред. А.С. Клюева. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Энергоатомиздат, 1990. – 464 с.: ил.
7. Контроллеры SIMATIC S7-300. Каталог 2010.
8. Программирование STEP7Lite. 2013.
9. Расходомеры фирмы «Yokogawa». Каталог 2014.
10. Усмонов А.У., Шомуродова Д.М. “Автоматика асослари” фанидан маърузалар матни. Бухоро. “Муаллиф”, 1999. – 70 б.
11. Федотов А.В. Автоматизация управления в производственных системах: Учебное пособие. – Омск: ОмГТУ, 2001. – 368 с.
12. «Samson»: Регулирующие клапаны для технологических процессов. Клапаны серии 230, 240. Том 1, 2004.
13. «Samson»: Регулирующие клапаны для технологических процессов. Приборы и принадлежности для регулирующих клапанов. Том 3, 2004.
14. Решения: нефть и газ. SIMATIC TIA, 2004.
15. Щелкунов В.А., Скобло А.И., Владимиров А.И. Процессы и аппараты нефтегазопереработки и нефтехимии.-С.П.:Недра, 2004
16. ГОСТ 21.404-85. Автоматизация технологических процессов. Обозначения условные приборов и средств автоматизации в схемах.
17. ГОСТ 15.001-88. Составление технического задания.

O'zg	Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	Kimyoviy termomexanik massani ishlab chiqarishda bug' generatorining issiqlik rekupersion uskunasini avtomatlashtirish va boshqarish	Bet
Bajardi:		Atoyeva Sh.Sh.				
Rahbar:		Abidov K.Z				